

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA XALQ OG'ZAKI IJODINI O'RGATISH METODIKASI

Nuriddin Olimjonovich Kirgizov

Namangan davlat pedagogika instituti

(PhD) katta o'qituvchi

Тел. 902793130 nuriddinqirg'izov43 @ gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari ko'rib chiqiladi. Xalq og'zaki ijodi janrlari (ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va boshqalar) o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish va kognitiv qobiliyatlarini oshirishda muhim vosita sifatida ta'kidlanadi. Metodik yondashuvlar, darsliklar tahlili va amaliy misollar asosida takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi darsliklaridagi badiiy asarlar tahlili, vatanparvar, mehr-oqibat, insoniylik, sabr-toqatlik, hamfikrlik, tarbiyaviy metodika.

МЕТОДОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ УСТНОЙ РАБОТЕ НАРОДНЫХ НАРОДНЫХ НАУК УЧЕНИКОВ НА УРОКАХ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Нуриддин Олимжонович Киргизов

Наманганский государственный педагогический институт

(кандидат наук) Старший преподаватель

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы преподавания народного искусства в начальной школе на уроках чтения и письма. Подчеркивается важность жанров народного искусства (сказки, пословицы, загадки, короткие изречения и т. д.) как важного инструмента развития речи учащихся, формирования их духовно-нравственного воспитания и совершенствования познавательных способностей. Предложены рекомендации, основанные на методических подходах, анализе учебников и практических примерах.

Ключевые слова: народное искусство, начальное образование, анализ произведений искусства в учебниках по чтению и письму, патриотизм, доброта, гуманность, терпение, здравый смысл, методика преподавания.

METHODOLOGY OF TEACHING FOLK ORAL WORK TO STUDENTS IN PRIMARY LITERACY LESSONS

Nuriddin Olimjonovich Kirgizov

Namangan State Pedagogical Institute

(PhD) Senior Lecturer

Abstract. *This article examines the theoretical and practical foundations of teaching folk art in primary school reading literacy classes. Folk art genres (fairy tales, proverbs, riddles, quick sayings, etc.) are emphasized as an important tool for developing students' speech, forming their spiritual and moral education, and improving their cognitive abilities. Suggestions are made based on methodological approaches, textbook analysis, and practical examples.*

Keywords: *folk art, primary education, analysis of works of art in reading literacy textbooks, patriotism, kindness, humanity, patience, common sense, educational methodology.*

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining asosiy poydevori hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'qish savodxonligi darslari markaziy o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodi – bu xalqning asrlar davomida to'plangan tajribasi, ma'naviy boyligi va madaniy merosining muhim qismi bo'lib, o'quv jarayonida o'quvchilarga vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik va adolat tuyg'ularini singdirishda samarali vositadir. Har bir jamiyat o'z tajribasini saqlash va uzatishga qiziqadi, bu esa ta'lim-tarbiya tizimiga bog'liq. O'zbek xalq og'zaki ijodi o'ziga xos bo'lib, qadimdan paydo bo'lgan va bugungi kunda ham ta'sirini saqlab qolgan. U jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir etadi va san'at turlarini boyitib boradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalq og'zaki ijodi boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Xalq og'zaki ijodiga asosan (ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar va boshqalar) boshlang'ich sinf o'quvchilarining ruhiy va ma'naviy rivojlanishida beqiyos rol o'ynaydi. Dars jarayonida o'quvchilarga folklor janrlari orqali adolat, jasorat, rahmdillik, vatanparvarlik kabi fazilatlarini o'rgatamiz va salbiy xislatlarni rad etish haqida tushuncha xosil qilamiz. Bu elementlar o'quv jarayonida o'quvchilarning idrok etish faoliyatini faollashtiradi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiradi. Shuningdek, 1-sinfda o'quvchilari ishonuvchan va tashqi ta'sirlarga ochiq bo'lgani uchun, o'qituvchilar bu janrlardan foydalanib, ijobiy emotsiyalar va axloqiy me'yorlarni shakllantirishga

mas'uldirlar. Folklor orqali nutq to'g'ri, boy va ifodali bo'ladi, tasavvur kuchayadi va tabiat, mehnat, vatan tushunchasi singdiriladi.

1-sinf o'quvchilari uchun o'qishdan ko'ra og'zaki tinglash afzalroq sanaladi. O'qituvchi ertaklarni o'quvchilarga ifodali aytib beradi, multimedia ilovalari orqali hamda interaktiv o'yinlardan samarali foydalanadi. Bu jarayon o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi va ma'naviy tarbiyasini kuchaytiradi. Darsni quyidagi bosqichlarga bo'lish tavsiya etiladi. Ertak bilan tanishtirish, suhbatlari, tahlil, qayta hikoya qilishga tayyorgarlik, umumlashtirish va uy vazifasi kabi topshiriqlar asosida o'quvchilar mustahkamlash tashkillashtiriladi. Bu orqali o'quvchilarda axloqiy tushunchalar va nutqiy kompetensiya mustahkamlanadi. Dars jarayonida qahramonlarni baholash uchun SWOT tahlili asosida, o'yin turlaridan unumli foydalanish va guruhli muhokamalar tashkil etish tashkil qilinadi. Bu jarayonda o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini rag'batlantirish ahamiyatli sanaladi.

O'qish savodxonligi darsliklarida xalq og'zaki ijodiga doir topishmoqlar, maqollar va tez aytish, o'zbek xalq ertaklaridan "Zumrad va Qimmat", "Egrivoy va To'g'rivoy", "Uch og'ayni botirlar" va o'yinlar "Quvlashmachoq, bekinmachoq" kabilar o'rin olgan. O'quvchilarni xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish ularning umumiy madaniyatini boyitadi, insoniy ruhiyatni chuqur anglashga yordam beradi va vatan tarixi, urf-odatlarini o'rganish orqali munosib shaxs sifatida tarbiyalaydi. Bolalikdan boshlab uy, ota-ona, tabiatga hurmat kabi tushunchalarni shakllantirish albatta ahamiyatligini singdirib bormog'imiz darkor. Xalq og'zaki ijodi boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq, so'z vositasida ifoda etiladi va o'quvchilarning nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqola xalq og'zaki ijodini o'rgatishning nazariy asoslari va amaliy metodlarini ko'rib chiqadi.

U xalqning fe'l-atvori, estetik didi, ruhiyati va urf-odatlarini aks ettiradi, bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi va vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Xalq og'zaki ijodi orqali 2-sinfda o'quvchilarga maqollar, topishmoqlar, ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar, tez aytishlar o'quvchilarning nutqini rivojlantiradi, mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradi va axloqiy me'yorlarni shakllantiradi.

Biz bu orqali maqollar va matallar o'quvchilarga tushuntirishda didaktik materiallar asosida vazifa bajarishga, hayot bilan bog'lash asosida maslahat

berishini, tabiat hodisalari haqida tushunchalarini shakllantirish bilan birga nutqiy kompetensiyasini boyitadi. O'qish savodxonligi darsliklarida topishmoqlar esa o'quvchilarning aqliy faoliyatni rag'batlantiradi, zukkoligini oshiradi va dunyo haqida tushunchasini kengaytiradi. Budan tashqari darslikda berilgan tez aytishlarda o'quvchilar nutqi to'g'ri shakllantirishga yordam beradi, tovushlarni talaffuz qilishi rivojlanadi.

2-sinf o'qish savodxonligi darsliklarida berilgan badiiy asarlar bolalarning shaxsiy fazilatini shakllanishida muhim bosqich bo'lib, o'quvchilarning tashabbuskorligini, bilish faoliyatini va tafakkurini faollashtiradi. O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodini o'rgatish sinfdan tashqari va sinfdagi o'qish faoliyatlari orqali amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari o'qish darslari har oyiga 2 marta o'tkaziladi, bu o'quvchilarning mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Mustaqil kitob tanlash va o'qish uchun kitoblar haqida o'qituvchi tushuncha beradi hamda kitoblar birgalikda tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodini o'rgatish o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, ma'naviy dunyosini shakllantiradi, ajdodlar merosiga hurmatni oshiradi va milliy an'analarga e'tiborni kuchaytiradi. U o'quvchilarni fikrlovchi, qiziquvchan, rahmdil va vatanparvar shaxslar sifatida tarbiyalaydi.

3-4-sinf o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilari uchun xalq og'zaki ijodi nafaqat nutq va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi, balki milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya va ijodiy fikrlashni shakllantirishning muhim elementi sifatida qaraladi. O'quvchilarga xalq og'zaki ijodini o'rganish bolalarning o'qish motivatsiyasini oshirish, matn tushunish darajasini yaxshilash va emotsional rivojlanishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Adabiyotlarda xalq og'zaki ijodini boshlang'ich sinflarda o'rgatish mavzusi keng yoritilgan. Masalan, Ruzikulova N.K. o'z ishida xalq og'zaki ijodining nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilib, uni o'quv jarayonida qo'llashni taklif etadi. U folklor janrlarini (ertak, doston, maqol, topishmoq) o'quvchilarning kognitiv rivojlanishida muhim deb hisoblaydi. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi orqali ma'naviy tarbiyani

shakllantirish bo'yicha tadqiqotlarda folklorning didaktik imkoniyatlari ta'kidlanadi. O'zbek xalq ertaklari va maqollari o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda asosiy vosita sifatida ko'rsatilgan.

Boshqa manbalarda o'qish darsliklarida xalq og'zaki ijodi namunalari integratsiyasi haqida gapiriladi. Masalan, ertak janrini o'qitish usullari va ularning tarbiyaviy ta'siri ko'rib chiqiladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari maktabda matn bilan ishlash metodikasi sifatida tavsiflanadi, bu o'quvchilarning nutqini, tafakkurini va estetik qarashlarini rivojlantiradi. Ushbu tahlillar asosida xalq og'zaki ijodini o'rgatishning zamonaviy yondashuvlari shakllangan.

Ertaklar orqali bolalar qahramonlarni taqlid qiladi va yaxshilikni o'rganadi. Masalan, "Yaxshilik ortidan yaxshilik keladi" ertagi yaxshilik va adolatni o'rgatadi. Maqollar va topishmoqlar hayotiy maslahatlar beradi, masalan, tabiatni kuzatish va mehnat qadri haqida tushuncha beriladi. Folklor asarlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, keyingi ta'lim bosqichlari uchun asos yaratadi va jamiyatga yo'naltirilgan mustaqil shaxsni shakllantiradi. Bu elementlar orqali oquvchilarning nutqiy kompetensiyalari, tasavvur va ma'naviy tarbiyasini shakllantirish haqidagi tushunchalari ta'minlanadi, bu esa umumiy ta'lim samaradorligini oshiriga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida folklor integratsiyasi quyidagicha: 1-sinfda Navro'z bayrami, topishmoqlar va ertaklar; 2-sinfda maqollar va afsonalar; 3-sinfda dostonlar va ertaklar. Ushbu metodlar o'quvchilarning faolligini oshiradi va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Dars jarayonida samarali metodikalarning qo'llanilishi o'quvchilarning o'z fikrlarini aniq, mantiqiy va ravon ifodalash ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagoglar interfaol, kommunikativ va innovatsion metodlarni uyg'unlashtirgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishlari lozim.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Har bir darslikda berilgan xalq og'zaki ijodiga oid rasmlar asosida hikoya tuzish – bunda o'quvchilarning tasviriy fikrlash va nutqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun berilgan topshiriqlarni sinflar kesimida o'quvchilar birgalikda matn xosil qilishga va shu matnni birgalikda tahlil qilishga o'rgatish, so'ngra

xatolarini birgalikda to'g'irlash mashqlarini tashkil qilish orqali ularning so'z boyliklarini shakllantirishdan iborat.

Dars davomida xalq og'zaki ijodiga oid mavzularni o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqni shakllantirishga ularning erkin fikrlarga aniq va to'liq bayon qilinishi maqsadli hisoblanadi. O'qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning nafaqat nutqiy va lingvistik mahoratini, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

1-sinf: "Bo'ri va echki bolalari" ertagi orqali itoatkorlikni o'rgatish. O'quvchilar ertakni sahnalashtirib, muhokama qiladi hamda ularning faolligi shakllanadi.

2-sinf: "Donishmand soat" ertagi vaqtning qadrlashni targ'ib qiladi. Maqollar esa o'quvchilar faolligini va ularga ahillikni o'rgatadi.

3-sinf: "Inson nima uchun hammadan kuchli?" ertagi do'stlik, birdamlik, mehnatsevarlik va hamkorlikni ko'rsatadi. Topishmoqlar orqali izlanish qobiliyati rivojlantiriladi. Ushbu misollar darsliklarda keltirilgan va o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

XULOSA

O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodini o'rgatish metodikasi o'quvchilarni nafaqat savodxon, balki ma'naviy boy shaxs sifatida tarbiyalaydi. O'qituvchilarga tavsiya uchun o'qish savodxonligi darslarida badiiy asrlar haqida tushuncha berishda boshqa fanlar bilan integratsiya qilish dars samaradorligini oshiradi.

Xalq og'zaki ijodini o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodika o'quvchilarning nutqini, tafakkurini va madaniy saviyasini oshiradi. Kelgusida badiiy asarlar zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali o'tish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ruzikulova N.K. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari.
2. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2022. – 354 b.

3. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2009. – 70 b.
4. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurunov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf. –Toshkent, 2021. –120 b.
5. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurunov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf. –Toshkent, 2021. –104 b.
6. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Qurunov,. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf. –Toshkent, 2022. –144 b. Boshlang'ich sinf "O'qish" darslarida xalq og'zaki ijodining namunalari.